

BOLALAR TARBIYASIDA ERTAK QAHRAMONLARINING TUTGAN O'RNI

Jumaeva Dilnoza

Jondor tuman 8-son DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola tarbiyasida va uning ongi shakllanishida ertaklarning o'рни, muhimlik darajasi, ertaklarning yoshga bog'likligi hamda ertaklarning turli ko'rinishdagi ta'sirlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ertak, tarbiya, ehtiyoj, xarakter, qahramon

Annotation: This article discusses the role of fairy tales in the upbringing of children and the formation of their consciousness, the level of importance, the age-related nature of fairy tales and the various effects of fairy tales.

Keywords: Fairy tale, upbringing, need, character, hero.

Inson hayotining boshida ertak bilan tanishadi, unga butun maktabgacha yoshda hamroh bo'ladi va abadiy saqlanib qoladi. Ertak tufayli bola tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi, oddiy vazifalarni bajaradi va intellektual rivojlanadi. Ertaklar bolalar va kattalar tomonidan seviladi. Ha ha! Kattalar ixtiro qilishni, sehr borligi bilan uydirma hikoyalarni aytib berishni juda yaxshi ko'radilar.

Ota-bobolarimiz, momolarimiz farzand tarbiyasiga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelganlar. O'g'il-qizlarimiz ezgulikka intilib o'sib, farzandlarimiz el-u yurt koriga yaraydigan, komil inson bo'lib ulg'aysin, deb ularni kitob o'qishga undaganlar, bir-biridan qiziqarli hikoya, ertak va rivoyatlar so'zlab berishni zinhor kanda qilmaganlar. Negaki, ertaklarda yaxshilik ulug'lanadi, yovuzlik, qoralanadi. Masalan: "Qosim lofchi" ertagida Qosim yolg'on gapirib, pand yeyishi, yolg'on ortidan ketmaket tashvishlar kelishini eshitgan bolalar yolg'on-yomon odat ekanligini bilishadi va yolg'on gapirmaslikka harakat qiladi. Shunday ekan, bolalarning tarbiyasida ertakning foydasi kattadir. Bolaning hayotida ertak qanchalik muhim? Bu savolga javob izlar ekanmiz. Multfilimlardan misol qiladigan bo'lsak, "Zumrad va Qimmat" multfilimida bola tarbiyasiga ta'sir qilishini tahlil qilamiz. Bolalar ushbu multfilimni tomosha qilar ekan, unda faqat bitta Zumrad va Qimmatni bir xil ko'rinishini biladilar. Bu esa, bolaning fikrlashi, o'ylashi sust bo'lishiga turtki bo'ladi. Ertak eshitayotgan bolaning ongi va fikrlash doirasi keragicha ishlaydi. Yuqorida aytilganidek, multfilimda faqat bir xillik ko'rinsa, ertaklarda esa aksincha, ertaklarni eshitib borayotgan bolalar o'zicha o'yladilar. O'zini Zumradini, Qimmatni ong ostida gavdalantiradi. Bu esa bolaning fikrlash doirasini kengayishiga juda katta samara beradi. Bugungi davrda yosh avlodni axborot –kommunikatsiya texnologiyalariga o'ta berilib ketishdan asrab, mutolaaga o'rgatish o'rniga, o'zimiz bunga sharoit yaratib

berayotganimiz oydek ravshan bo'lib, yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xalqimizda bir gap bor. "Bolani besh yoshgacha yozilmagan qog'oz"- deyдилar, ya'ni nimani yozsang, kelajakda shuni o'qiysan. Tili endigina chiqqan farzandingiz savollar berib, odamni esangkiratib qo'yadi. Aynan shu davr juda ham muhim, negaki, bola bu davrda ko'zi bilan ko'rib turib uni nima ekanligiga aqli yetmaydi. Siz farzandingizni aqli yetmagan narsa, buyum, jonzotlarni erinmasdan tushuntirsangiz maqsadga muvofiqdir. Afsuski, ayrim yosh onalar bu payt farzandini noo'rin jerkib tashlaydi. Albatta, bu noto'g'ri, chunki bola bunday vaziyatda onasidan so'rashga qo'rqib qoladi. Farzandingizni tili chiqib endigina qadam tashlayotgan kichkintoyingiz juda g'ayratli va serharakat bo'ladi. Uning har kuni lug'at boyligi boyib, o'sib boradi. Aynan shu paytda farzandingizga nima o'rgatsangiz, tez ilib oladi. Unda syujetli o'yinlarga ehtiyoj tug'iladi. Agar shunday vaziyatda farzandingizga aytib bergan ertaklaringizni u bilan obrazga kirib o'ynasangiz, foydadan holi bo'lmaydi. Ertak bolaga hayotni anglash, oqni qoradan farqlash hamda ezgulikni yovuzlikdan ustin qo'yishga undaydi. Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, yorga vafodorlik, shu yo'lda qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlar ulug'lanadi, zulm va zo'ravonlik qoralanadi. Barchamizga ma'lum ertaklardan "Susambil"da hayvonlar, birlashib bo'rilar ustidan g'alaba qozonadilar, bu esa o'z navbatida bolalarga kuch birlikda, ahillikda ekanligini uqtiradi. "Oltin tanga" ertagida esa halollik ulug'lanadi. Ertak bolaning xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni ijobiy tomonga o'zgartiradi, masalan: yolg'onchilik, qo'pollik, badjaxillik, o'g'rilik, dangasalik, yig'loqilik, qo'rquv kabilarning to'g'ri so'zlik, muloyimlik, oqko'ngillik, ozodalik, mehnatsevarlik, botirlik va jasurlik tuyg'ulariga o'girishga samarali yordam beradi. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri, uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan juda yaqin bog'langan bo'lishi, bolalarga axloqiy va ma'naviy, jismoniy kuchga ishonch ruhi bilan boydir. U bolaga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysungani ifodalaydi. "Ertaklarda bola tabiati va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan qarshi kuchlarga kurashda doim g'olib chiqadi va bolaning hayotga tayyorlashda ko'maklashadi desak, mubolag'a bo'lmaydi" Har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib berishsa, farzandlari hayoti davomida ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'usi ostida voyaga yetadi.

"Sholg'om" bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli. Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi. Ikkinchidan, bola

atrofidagilar bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak. Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikir, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolalar hayvonlar haqidagi ertak va ertaklarni yaxshi ko'radilar. Mushuk, xo'roz, quyon, tulki, bo'ri, ayiq bolalarga eng tanish hayvonlar sifatida hayotdan ertakga o'tib ketgan. Ertakdagi barcha fantastik narsa voqelik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bolalarni undan uzoqlashtirmaydi, aksincha, hayot haqiqatini ochib berishga xizmat qiladi. Ertaklar o'z mazmuni bilan bolalarga tabiat haqida bilim beradi.



Bolalar hayvonlarning turmush tarzi, ularning odatlari, u yoki bu hayvonga qanday xususiyatlar xosligi haqida bilib oladilar. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiiy sharoitda hayvonlar hayotining xususiyatlari, ularning uylarini qanday tartibga solishlari, bolalariga g'amxo'rlik qilishlari va oziq-ovqat olishlari haqida gapirib berish mumkin. Hayvonning tabiatdagi ahamiyatini ham tushuntirib bera olasiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab hayvonlar haqida birlamchi g'oyalar, ularning hatti-harakatlarining xususiyatlari ertak ta'sirida aniq shakllanadi. Bolalik taassurotlari eng yorqin va barqaror bo'lib, ular har bir inson hayotida chuqur iz qoldiradi. Ertak tasvirlari yorqin hissiy rangga ega bo'lib, bolalar ongida uzoq vaqt yashaydi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar erkaklar va ayollar uchun namunadir. Qizlar go'zal malikalar haqidagi ertaklarni afzal ko'radilar, o'g'il bolalar ritsarlar va qahramonlar haqidagi ertaklarni tinglashni yaxshi ko'radilar. ertaklarning ahamiyati ularning bolaning har tomonlama rivojlanishiga, xususan, axloqiy tarbiyasiga ta'siridadir. Ertaklar haqiqat g'alabasiga, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Qoidaga ko'ra, ijobiy qahramon va uning do'stlarining azoblari o'tkinchi, vaqtinchalik, quvonch odatda ulardan keyin keladi va bu quvonch kurash natijasi, birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasidir. Bolaning yaxshi inson bo'lib voyaga yetishi uchun bolalikdan boshlab u bilan birga ishlash

kerak. Ertaklar odamlarda ma'naviyat, mehr-oqibat, insoniylikni tiklashga yordam beradi. Va buni bolalardan boshlash kerak, chunki hayotning moddiy tomoni ularni allaqachon o'z tarmoqlarida qamrab olgan. Bolalar hali ham hamdardlik, hamdardlik bildirishlari mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi bu kurtaklarning og'ir hayot haqiqati tomonidan ezilishiga yo'l qo'ymaslik, balki ularning unib chiqishi, bolaning qalbi va qalbida chuqur o'sishi uchun zarur bo'lgan hamma narsani qilishdir. Asosiy tarbiya vositasi bolalar adabiyoti, inson qalbini ezgulikka, saxovatga, vijdonga, or-nomusga, adolatga aylantiruvchi ertaklardir. Bolaning shaxsiyati bolalikdan tug'iladi. Binobarin, adabiyot, ya'ni ertak bola ongiga emas, qalbining torlariga qanchalik tez tegsa, ulardagi ezgu tuyg'ular yovuzlikdan ustun kelishi shunchalik kafolatlanadi. Zero, adabiyot tuyg'ular tilida so'zlashuvchi urgan yurakdir. Ertak beradigan saboqlar kattayu kichik uchun hayot saboqidir.

Xulosa

O'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantiradi. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rgatadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib, voyaga yetganidan keyin u ezgu ishlarga odatlanadi. Har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib berishsa, farzandlari hayoti davomida ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'usida voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya, o'quv qo'llanma. Toshkent 2010
2. Abdumannotov A. Navoiy farzand adobi haqida. /Boshlang'ich ta'lim, 1996
3. Munavvarov A. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 1996 y.
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi: Ped.in-tlarning maktabgacha tarbiya fak. Talabalari uchun. -T.: O'qituvchi, 1993
5. Zunnunov A. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. - T.:«Fan», 1996 y
6. Zinkevich-Evstegneeva T. D. Sehriga yo'l.. Ertak terapiyasi nazariyasi va amaliyoti. - Sankt-Peterburg, 1988 yil. 7..Zinkevich-Evstegneeva T.D. Ertak terapiyasi bo'yicha seminar. SPB, 2002 yil.
8. Ryzhova N. A. Faqat ertaklar emas. Ekologik hikoyalar, ertaklar va bayramlar. M.: - "Linka-press", 2002.-200-yillar. 9.. Sidlovskaya O. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishidagi ertak // Bolalar bog'chasidagi bola, 2001.-№ 3.-b. 80-83.